



RISHTON KULOLCHILIK MAK TABI KASB-HUNAR LEKSİKASI

Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna

Far DU akademik litseyi o'qituvchisi Zilolamsmstqulova 1988@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasb-hunar leksikasi haqidagi nazariy qarashlar, kasb leksemasining tilshunoslik lug'atlaridagi izohi va tadqiqotlardagi sharhlari izohlangan. Rishton kulolchilik maktabiga xos birliklarning lug'aviy ma'nolari yoritilangan. Kasb-hunar leksikasining asosiy begilari sanab o'tilgan.

Kalitso'zlar: Kasb-hunar leksikasi, kasb leksemasi, Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasi, kulolchilik bilan bog'liq toponimlar.

Abstract: In this article, the theoretical views on the lexicon of profession, the explanation of the lexeme of profession in linguistic dictionaries and the comments in researches are explained. The dictionary meanings of units specific to the Rishton pottery school are highlighted. The main terms of the professional lexicon are listed.

Keywords: Vocational lexicon, occupational lexeme, vocational lexicon of the Rishton Pottery School, toponyms related to pottery.

Har bir xalqning milliyigini, o'ziga xos an'analarini ifoda etuvchi vositalardan biri bu – xalqning amaliy san'atidir. San'at – inson faoliyati va ijtimoiy ong mahsulidir. U jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, insonlar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan vujudga kela boshlagan.

Amaliy san'at esa, ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolariga badiiy ishlov berish bilan bog'liq jarayondir.

Xalq amaliy san'atining bir qancha ko'rinishlari mavjud: rassomlik, zardo'zlik, kashtachilik, ganchkorlik, kosibchilik, me'morchilik, pichoqchilik, to'quvchilik, haykaltaroshlik, duradgorlik va boshqalar.

Har bir xalq o'zining ichki imkoniyati, kundalik turmush tarzi, milliy an'analar, urfatlari va yashash sharoitlaridan kelib chiqqan holda ma'lum amaliy san'at bilan mashg'ul bo'ladi. Masalan, xitoyliklar chinnisi, eronliklar gilami, hindlar fil suyagi mahsulotlari, chexlar shishasi, rus xalqi kashtachilik, to'quvchilik, fransuzlar rassomlik, o'zbeklar esa to'quvchilik va kulolchiligi bilan dunyoga tanilgan.

Mazkur amaliy san'at turlari xalqning bir necha asrlik an'analar va milliyigini to'la-to'kis o'zida namoyon etadi.

O'zbek xalqiga xos xalq amaliy san'atning turlaridan biri kulolchilikdir. Kulolchilik buyumlarini yasash mashaqqatli va murakkab jarayon sanaladi.

Bu jarayonda ishlab chiqarish qurollari, xomashyosi, undagi naqshlar, bezaklar, rang jilosi, buyumlar shakli, mehnat taqsimoti kulollarning qaysi hududda ijod qilishiga, qaysi maktab vakili ekanligiga ham bog'liqdir.

Respublikamizdagi kulolchilik maktablari orasida Rishton kulolchilik maktabining alohida o'rni bor.

Farg'ona viloyati markazidan 50 km uzoqlikda, uncha katta bo'limgan, Markaziy Osiyoning sirlangan sopol buyumlar markazi sifatida dunyoga tanilgan Rishton shahri joylashgan. U Farg'ona vodiysining qadimiy tarixga boy, so'lim va navqiron shaharlaridan biri. Rishton haqidagi ma'lumotlar "dastlab X asr manbalarida, jumladan, arab sayyoohlari asarlari va "Hudud ul-olam" da Rishton, "Boburnoma"da Rushdon hamda Qo'qon xonligi tarixiga oid kitoblarda Rashidon// Roshidon tarzida tilga olinadi"⁵.

Shahar nomining kelib chiqishi haqida xalq orasida afsonalar mavjud. Ularga ko'ra, Rishton so'zi ("roshid") fors-tojikcha bo'lib, "ziyoli" degan ma'noni, -on qo'shimchasi esa, o'zbek tilidagi ko'plik ma'nosini anglatadi. Demak, Roshidon so'zi "ziyolilar yashovchi joy" degan ma'noni bildiradi. Yana bir afsonaga ko'ra, kulolchilik uchun ishlatiladigan tuproq qizil rangli gil bo'lganligi uchun ushbu toponim qadimiy so'g'd tilida "rash/rush/rushi" ("qizil tuproq") so'zidan paydo bo'lgan. Bu Rishtonning geografik joylashuviga ham bog'liq holda nomlanganligidan dalolat beradi.

U markaziy Farg'ona cho'lining janubida, So'x daryosi va Katta Farg'ona kanali bo'yida joylashgan bo'lib, hududi asosan tekisliklardan iborat. Bu joyning tuprog'i qizil rangda bo'lganligi, yerning geomorfologik tabiatni, aynan bu yerning tuprog'i kulolchilik uchun yaroqli bo'lgani bois hududda kulolchilik kasbi keng rivojlangan. Rishton tuprog'inining qizil bo'lishiga sabab shuki, mazkur hududda suv ko'p bo'lib, suv tubidagi cho'kindi qatlam qizg'ish tusga kirib qolgan. Tumanda har qanday turdagи buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan, alohida navli kulolchilik gili ana shu qatlamdan olinadi. Shu omillar tufayli kulolchilik qolgan hududlarga qaraganda yaxshi rivojlangan.

Demak, Rishton toponimining vujudga kelishida mazkur hududning geomorfologik tabiatni asos qilib olingan. Oykonim tarkibidagi rash//rush>rish morfemasi sug'dcha "qizil tuproq, qizil yer"; eroniy tillarga mansub -ton komponenti esa turar joy, makon yoki qishloq ma'nosini ifodalaydi"⁶.

Xalqimiz azaldan hunarmand xalq sanaladi. Ayniqsa, hunarmandchilik shahar aholisining asosiy mashg'uloti, tirikchilik manbai sanalgan. Hunar egalarining yashash hududi, mahallasi, guzari, qishlog'i ularning kasb-kori nomi bilan bog'liq holda atala boshlangan. Jumladan, kosiblar mahallasi, qassoblar mahallasi, temirchilar mahallasi va boshqalar. Shu tariqa kasb-hunarga oid leksika onomastikaga ko'chgan. Kulolchilikka oid birliklarining Rishton tumanidagi bir qancha MFY, qishloq nomlaridan onomastikaga ko'chgan holatlarini ko'rish mumkin. T.Nafasov va Sh.Tursunovlarning "Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari" kitobida aynan yurtimizda kulolchilik kasbi bilan bog'liq bir qator toponimlar sanab o'tilgan⁷.

Kulolchilik kasbiga aloqador toponimlarni 3 ta guruhg'a bo'lib, quyidagicha tasniflash mumkin:

⁵ Шукров Р., Жўрабоева Г. Фаргона водийси топонимларининг кисқача изоҳли лугати. – Фаргона: "Classic" нашриёти, 2021. – Б. 69.

⁶ Шукров Р., Жўрабоева Г. Фаргона водийси топонимларининг кисқача изоҳли лугати. – Фаргона: "Classic" нашриёти, 2021. – Б. 71.

⁷ Нафасов Т. Ўзбек хунармандчилиги ва ўзбек топонимияси // Нафасов Т., Турсунов Ш. Қарши шахри маҳалла ва кўча номлари. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 17-18.

1.2.1-jadval.

Rishton kulolchilik kasb-hunar leksikasi bilan bog'liq toponomalar

No	Toponimlarning paydo bo'lish asoslari	Toponimlar
1	Kulolchilik kasbi asosida yuzaga kelgan toponomalar	Kulol, Kulolon (Rishton hududida)
2	Kosa, tovoq yasash hunari asosida nomlangan toponomalar	Kosagar, Chinninigor (Rishton hududida)
3.	G'isht, sopol idishlar pishirish asosida yasalgan toponomalar	Xumdon (Rishton hududida)

Ko'rinaridiki, kulolchilikka oid birliklar o'zbek tilining tarixiy va madaniy til birligi sifatida xalq turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlarni o'zida umumlashtiradi.

O'sha hududda yashovchi aholining moddiy-ma'naviy madaniyatini aks ettiradi, mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, taomlar, milliy hunarmandchilik, ishlab chiqarish, savdo-sotiq faoliyati va urf-odatlari bilan bog'liq axborotni o'zida mujassamlashtiradi, shuningdek, xalqning madaniy qarashlarini aks ettiradi.

Kulolchilikning asosiy xomashyosi bo'lgan qizg'ish-sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 0,5-1 metr chuqurlikda qatlam bo'lib joylashgan. Mazkur gil boshqa hududlarda bu darajada tabiiy holatda uchramaydi. Rishtonda esa boshqa turdag'i tuproqlarga aralashmagan holda, tabiiy ravishda "xoki surx" (tojikcha: xoki -tuproq, surx - "qizil" tushunchasi doirasida "qizil tuproq" degan ma'noni anglatadi, xoki - "tuproq" esa forsiy izofaning tarkibiy qismidir) bo'lishi kulollarni o'ziga jalb etgan.

Kulolchilik ildizlari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Shu bois merosxo'r ustalarning loyni ezish, bo'yoq tayyorlash, o'tlar va minerallarni yig'ish san'ati avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Rasm-rusumlar va loyga ishlov berish jarayonidagi sirlar asrlar davomida shajara bo'lib, otadan o'g'ilga, o'g'ildan nabiraga o'tib kelmoqda. Shu sababli qo'l mehnati bilan tayyorlangan buyumlar mamlakatimizda ham, chet ellarda ham katta badiiy-estetik qimmatga ega, chunki idishlardagi ranglar vaqt o'tishi bilan nursizlanmaydi, balki o'z rangini saqlab, yanada yorqinroq tus oladi. Rishton kulolchilik leksikasining genezisi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Bu birliliklarning salmoqli qismini adabiyotlarda, jumladan, mumtoz adabiyotlarda uchratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 мартағи “Кулолчиликни жадал ривожлантириш ва қўллаб-кувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Пк-3053-сон Қарори.

2. Karimov H. Kasb tushunchasi va uning inson hayotida tutgan // “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” konferensiya materiallari. – 2021 – № 2.

3. Шукуров Р., Жўрабоева Г. Фарғона водийси топонимларининг қисқача изоҳли луғати. – Фарғона: “Classic” нашриёти, 2021.
4. Нафасов Т. Ўзбек ҳунармандчилиги ва ўзбек топонимияси // Нафасов Т., Турсунов Ш. Қарши шаҳри маҳалла ва қўча номлари. – Тошкент: Маънавият, 2008.